
YOZGI SOG'LOMLASHTIRISH DAVRI BOLALAR HAYOTIDA MUHIM AHAMIYATGA EGA

Yozgi sog'lomashtirish davri maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sog'lomashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish uchun eng qulay vaqtdir.

Toshloq tumanida ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi mavsumni o'tkazishga doir chora-tadbirlar davom etmoqda. Bugun tumandagi 1-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida "Yozgi sog'lomashtirish mavsumini tashkil etish" bo'yicha tadbir o'tkazildi. Tadbirga maktabgacha ta'lim tashkilotlari uslubchi, jismoniy tarbiya yo'riqchilari hamda hamshira xodimlari taklif etildi.

Tadbir davomida tashkilot tarbiyalanuvchilari ishtirokida konsert dasturi, milliy qo'g'irchoq teatri tomoshasi, velopoyga hamda jajji rassom tanlovlari o'tkazildi.

2023-07-07 19:02:57